

MUHAMMAD RAHMON SHE’RIYATIGA BIR NAZAR
yoxud
SHOIRNING BADIY FOLKLORIZM YARATISH MAHORATI

Marhabo Qo‘chqorova Xudoyberganovna
filologiya fanlari doktori
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti yetakchi ilmiy xodimi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada qisqa umri davomida zamonaviy o‘zbek she’riyatida iz qoldirgan iste’dodli shoir, tarjimon va bolalar ijodkori Muhammad Rahmon hayoti va ijodiga umumiy nazar tashlanib, shoirning badiiy folklorizm yaratish mahorati tahlil etildi.*

***Kalit so‘zlar:** zamonaviy o‘zbek she’riyati, Muhammad Rahmon, badiiy folklorizm, obraz, bolalar ijodkori, ballada, adabiy ertak.*

Muhammad Rahmon 1949-yil Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi Palandara qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (2003). Muhammad Rahmon o‘rta maktab ta’limini olgach, 1967— 1972-yillarda Toshkent davlat universtining jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Muallifning “Muvozanat” (1976), “Yashil daryo” (1979), “Yuragimning dastxati” (1986), “Ijobat” (1984), “Asraganim, avaylaganim” (1987) kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Muallif bolalar uchun ham asarlar yozgan, xususan, adibning bolalarga bag‘ishlab yozilgan “Momoqaymoq” (1978), “Yerga tushgan kamalak” (1981), “Qanotli tushlar” (1989) to‘plamlari ham chop etilgan.

Muhammad Rahmon ijodkorlikdan tashqari, badiiy tarjima ishlari bilan shug‘ullangan. Xususan, K. Chukovskiy, A. L. Barto she’rlarini, Lizoletta Velskof-Genrixning “Tokey Ito” romanini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Afsuski, shoir 2010-yilda erta vafot etdi. Ammo shoir va tarjimondan qolgan ijod namunalari avlodlarimiz qalbida qoldi.

Ijodkorning nozik did bilan yaratilgan she’riy merosi ko‘pgina adabiyotshunoslar va tadqiqotchilarni o‘ziga jalb etdi. Binobarin, shoir qalamiga mansub she’riyat namunalari, ijodi R.Barakayev, M.Abdulhakim, B.Sodiqov kabi olimlar va muxlislarni hayratlantirgan.

Muhammad Rahmon shoir sifatida kattalar uchun ham, bolalar uchun ham she’rlar yozdi. Ijodkor qalam tebratgan she’riy janrlarga nazar tashlasak, erkin she’r, ballada, adabiy ertak, dramatik doston namunalarni yaratgan. Shoirning “Saylanma. Yo‘l ko‘rayotgan odam” to‘plamiga kirish so‘zi yozgan Matnazar Abdulhakim u haqda shunday yozadi: “Adabiyotsiz xalq, agar shunday xalq bo‘lishi mumkin bo‘lsa, vijdotsiz xalqdir. Men Muhammad Rahmonni xalqimizning vijdonini ta’min etayotgan insonlardan, deb bilaman.

... Muhammad Rahmonning she’riyati ko‘plab mutafakkirlarimiz, shular safida Muhammad Rahmonning o‘zi ham orzu qilgan ulug‘vor sukunatning qobig‘ini

parchalab yuksalgan azamat so‘zidir. Bu so‘z o‘zining ishq po‘chog‘ini pachaqlab unib o‘sgan toshyong‘oqqa o‘xshaydi. Ildizlari baquvvvat, tanasi purviqor, mevalari aqlni ishlatadigan...”¹.

Shoir she‘riyatida kutilmagan poetik obraz va metaforalarni uchratish mumkin. Masalan, shoirning “Shift”, “Kinokamera”, “Shovqinlar”, “Oq kaptarga aylangan bola” singari she‘rlari katta iste‘dod bilan yaratilgan.

Muhammad Rahmon she‘rlarining mutoalasi shoirning badiiy folklorizm yartish mahorati ancha kuchli ekanidan dalolat beradi. Jumladan, shoirning “Boychechak”, “Yangi ertak”, “Oq kaptarga aylangan bola”, “Yakkamixda aylanar ot...”, “Farosat haqida ertak”, “Bir kecha hikmati yoki Nasriddin Afandining bo‘rilarga duch kelgani”, “Xalq ohanglarida”, “Beshinchi darvesh”, “Qora ko‘ylak” (ertak-doston), “Kenja botir hasrati”, “Etik haqida ballada”, “Tuyaqush”, “Haqlingni qilaver pesh”, “Qo‘hi padarkush”, “Afandini uchratdim”, “Mo‘ndi” qizlar”, “Qanotli tush”, “Topqir chittak”, “Qasos”, “Kambag‘allik qursin”, “Suvaraklar sultoni”, “Pishiqchilik hangomasi” kabi she‘rlarida folklor ijodga xos obraz stilizatsiyasi, ritm stilizatsiyasi, janr stilizatsiyasi yuz bergan. Shoir lirikasini yosh nuqtayi nazaridan ikkiga bo‘lish mumkin. Bular: Kattalar uchun yozilgan she‘rlar; Bolalar uchun yozilgan she‘rlar.

Muhammad Rahmon zamonaviy o‘zbek she‘riyatining Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Oybek, Asqad Muxtor, Omon Matjon, Erkin Vohidov, Shavkat Rahmon, Azim Suyun kabi ko‘plab shoirlari ijodidan bahramand bo‘lib, ularning o‘ziga xos badiiy ijodiy uslubini o‘z ijodiga singdirib yuborgan. Ba‘zan shoir o‘zi bilibmi, yoki bilmayman salaflarining she‘riy misralarini ham o‘z ijodiga tadbiiq etib yuboradi. Masalan:

Muhammad Rahmonda:

Go‘yo tunning shart kesib
Olingan bir bo‘lagi,
Ko‘ylak edi o‘sha tug‘
Malikaning ko‘ylagi!²

Usmon Nosirda:

Jim!.. Ufqdan botar quyoshni
Shart kesilgan boshga o‘xshatdim.
Parcha-parcha kuygan shafaqlar
Tirqiratgan qonni eslatdi!³

Kuzatayotganimizdek, Usmon Nosirning qizarib botayotgan quyoshni “shart kesilgan bosh”ga o‘xshatish san‘ati Muhammad Rahmonda Malikaning qora

¹ Rahmon M. Saylanma. Yo‘l ko‘rayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 6.

² Rahmon M. Qora ko‘ylak / Yo‘l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 92.

³ O‘sha manba. – B. 76.

ko‘ylagi qora tunning “shart kesilgan bo‘lagi”ga mengzaladi. O‘xshatilayotgan va o‘xshayotgan obyektlar turlicha bo‘lsada, badiiy ifodadagi “shart kesilgan bosh” va “tunning shart kesilgan bo‘lak”i tushunchalari nihoyatda bir-biriga yaqin metaforalardir.

Muhammad Rahmon obrazli tashbehlar, poetik obrazli ifodalar yaratishda ba‘zan ustozlar badiiy topilmasini takrorlab qo‘yadi. Bizningcha, shoirning badiiy folklorizm yaratish mahoratini o‘rganish va tadqiq etish qiziqarli tadqiqot yaratilishiga asos bo‘ladi. Jumladan, “Xalq ohanglarida” deb nomlangan quyidagi she‘riga diqqat qaratamiz:

Dilda kir yo‘q, kin ham yo‘q,
Sendan mening ginam yo‘q.
Qo‘l ko‘tarsam qo‘l sinsin,
Sanchadigan ninam yo‘q.
Sevar yorim, salomat bo‘l!
Sevarim yorim, salomat bo‘l!⁴

Mazkur she‘rga xalq qo‘shiqlaridan bir misra “Sevar yorim, salomat bo‘l!” epigraf qilingan. She‘r jami olti banddan iborat bo‘lib, oxirgi ikki misrasi “Sevarim yorim, salomat bo‘l!”ning takroridan iborat. Muhammad Rahmon xalqona uslubda she‘r yozar ekan, oshiqning o‘z ma‘shuqasiga toza, sof muhabbatini, oppoq tilaklarini oddiy, jaydari xalq tilida badiiy ifodalaydi. Ishqda kuyib ado bo‘lgan lirik qahramon ishqdan totib, undan sarmast bo‘lib, duogo‘yga aylanganini yozg‘iradi. Oxirgi band quyidagicha yakunlanadi:

Oshiq o‘yga aylansin,
G‘azal, kuyga aylansin.
Hech bo‘lmasa men kabi
Duogo‘yga aylansin:
Sevar yorim, salomat bo‘l!
Sevar yorim salomat bo‘l!⁵

Muhammad Rahmon “Qora ko‘ylak” ertak-dostonida ham janr stilizatsiyasini, ham obraz stilizatsiyasini amalga oshirgan. Shoir bu ertak-dostonida ochko‘z, to‘ymas bir shoh haqida yozadi. Aslida xalq ertaklarida bunday johil, ochko‘z podshohlar haqida juda ko‘p tasvirlangan. Shoir M.Rahmon xalq ertaklaridagi ana shu salbiy, fotih hukmdorlar, shohlar haqidagi syujetlar va obrazlardan unumli foydalangan holda “Qora ko‘ylak” ertak-dostonida badiiy folklorizm yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Fotih shoh bir mamlakat hududiga bostirib boradi. Bu yurtning hukmdori ayol kishi bo‘ladi. Johil shoh navkarlari bilan qo‘lga tushadi. Shunda bir

⁴ Rahmon M. Xalq ohanglarida / Yo‘l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 80.

⁵ Rahmon M. Xalq ohanglarida / Yo‘l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 81.

aqlli navkarining uddaburonligi bilan ular omon qolishadi. Navkar o‘lim oldidan malikaning etagiga yopishib, “sizni onamga o‘xshatdim. Onamni juda sog‘indim” deydi. Malika navkarning bu gapidan ta’sirlanib ketib, onalik mehri jo‘sh urib, vataniga bostirib kelgan bu jinoyatchilarni kechirib yuboradi. Malika qora ko‘ylak kiyib olgan, azada edi. Shuning uchun ham ertak-dostonga “Qora ko‘ylak” sarlavhasi berilgan. Farosatli navkar uni azadorligini sezib, uning o‘g‘lidanmi, qizidanmi judo bo‘lganini taxmin etib, unga “onamga o‘xshatdim” deb malikaning hissiyotlariga ta’sir etuvchi gaplarni aytib, nafaqat o‘zining, boshqa navkarlar va shohning jonini omon saqlab qoladi.

M.Rahmonning “Mo‘ndi” qizlar” deb nomlangan bolalarga bag‘ishlab yozilgan she’rida janr stilizatsiyasi yuz bergan. Jumladan:

-Qosh-qobog‘i bo‘yalgan,

Yonoqlari bo‘yalgan.

Burunchasi, manglayi,

O‘ymoqlari bo‘yalgan

Hindu qizlarga, salom!

Mo‘ndi qizlarga, salom!...⁶

Qizig‘i, mazkur she’rda shoir ham “Kelin salom” janrini, ham “munozara”, “aytishuv” janrini stilizatsiya qilgan. Zero, she’rning davomini o‘qib ko‘ramiz:

-Hindu demang, o‘zbekmiz,

Mo‘ndi, demang, o‘zbekmiz.

Anavi-chi, amaki,

Bog‘dan o‘sma uzdik biz.

Piyolani to‘ntarib

O‘smani xo‘p ezdik biz.

Olib qo‘lga cho‘ppilik

Piyolaga cho‘zildik...

U tomonga suzildik,

Bu tomonga suzildik.

Qolibmiz-da gaplashib,

O‘sma ketdi chaplashib!..⁷

Muallif “Mo‘ndi qizlar” she’rida janr stilizatsiyasidan tashqari, ijtimoiy-maishiy folklorizm turini ham yaratgan. She’rda o‘zbekning maishiy turmush lavhalari, ya’ni qizlarning qoshiga o‘sma qo‘yish hayotiy lavhalari badiiy gavdalantirilgan. Shuningdek, shoirning bolalarga mo‘ljallab yozilgan “Ochko‘z kenguru”, “Ishonch darsi”, “Topqir chittak”, “Saboq”, “Kambag‘allik qursin”

⁶ Rahmon M. “Mo‘ndi” qizlar / Yo‘l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 192.

⁷ Rahmon M. “Mo‘ndi” qizlar / Yo‘l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 192.

she’rlarida allegorik obrazlilikdan unumli foydalanilgan. “Ochko‘z kenguru”da Kengura xaltasiga shar, karam, olma, holva, moy ko‘ziga ko‘ringan nimaiki yeydigan narsalarni tiqib, bolasi sig‘may qolganini aytish orqali uning “ochko‘z”ligiga urg‘u beradi. Shoir bu orqali bolalarni ochko‘z, badnafs bo‘lmaslikka da’vat etadi. “Topqir chittak” she’rida ham folklorga xos badiiy ritm va xalqona ohang nihoyatda aniq va tiniq his etiladi:

Chittakning nimasi yo‘q?
Chang‘isi, kemasi yo‘q!
Chunki yo‘qdir tangasi
Ham mehribon yangasi.
Ammo yurmas piq-piqlab
Yig‘lab,
Juda
Quv-da u!
Oqizoq cho‘pga qo‘nib
Chang‘i uchar suvda u!⁸

M.Rahmon bolalarga bag‘ishlab yozgan qator she’rlarida qushlar, hayvonlar, har xil predmetlarni jonlantirib tasvirlaydi. Masalan, “Ishonch darsi” she’rida zooparkdagi hayvonlar Tuyaqush, Toy, Kenguracha, Begemotcha, Maymuncha, To‘ng‘izcha, Uloq, Xo‘tik murabbiy boshchiligida (Tuyaqush murabbiy) choyxo‘rlik qilishadi. Qanddondan oq qand olishadi. Har bitta hayvonga ikkitadan oqqand yetishadi. Qarasaki, begemotcha qandsiz qoladi. Murabbiy hammaning choyiga qarab chiqib, ikkita qoqandni ortiqcha olgan Xo‘tik ekanligini aniqlaydi. Chunki, uning choyida to‘rtta to‘rtburchak ko‘pik paydo bo‘lgan bo‘ladi. Mazkur she’rda ham muallif “badnafslilik” va “ochko‘zlik”ni tanqid ostiga oladi. Xo‘tik badnafsligi tufayli hayvonlar oldida izza bo‘lib qoladi. Shoir odamlar hayotidagi ana shunday misollarni hayvonlar hayotiga ko‘chirib tasvirlash orqali, bolalar uchun qiziqarli, obrazli, allegorik she’r namunasi yaratadi. Muhimi, shoir bolalarga “ochko‘z”, “badnafs” bo‘lmaslik haqida ta’lim-tarbiya beradi.

M.Rahmon o‘zi bolalar shoiri sifatida she’r bitish qatorida, boshqa xalqlarning bolalar she’riyatidan ham ajoyib tarjimalarni amalga oshirgan. Masalan, rus shoiri Korney Chuykovskiyning “Pashsha - Oypashsha” masalini nihoyatda katta mahorat bilan o‘zbekchalashtirgan. Masalning birinchi bandi quyidagicha boshlanadi:

Pashsha, pashsha, Oypashsha
Qorni zar, tillo pashsha.
Topib oldi mis tanga.

⁸ Rahmon M. Topqir chittak / Yo‘l qaroyotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 196.

Bozorga chopib qoldi,
Samovar sotib oldi.

- Suvaraklar, kep qoling,
Choy-non bizdan yeb qoling! –
Bugun pashsha-Oypashsha
Tug‘ilgan kun, tomosha!

Masal qahramoni Pashshaoy mis tanga topib olib, bozorga borib, samovar sotib oladi. Tug‘ilgan kunida do‘stlarini, ya’ni suvaraklar, xonqizilar, qo‘ng‘izlar, burgalar, ari, kapalak qiz, o‘rgimchak, chigirtka, kanalar kelishadi. Ammo sho‘rlik Pashshaoyning boshiga og‘ir ko‘rgilik tushadi. Yovuz o‘rgimchak Pashshaoyni to‘riga o‘rab, uni yemish qilmoqchi bo‘lganida, barcha hasharotlar qochib qolishadi. Shunda botir chivin kelib, Pashshaoyni yovuz o‘rgimchak dastidan qutqaradi. Masal yakunida Pashshaoy bilan chivinning to‘yi bo‘ladi. Allegorik obrazli voqealar va tasvirlarga boy mazkur masalda odamning boshiga og‘ir kun tushganida do‘stman deb yurganlarning qochib qolishiyu, haqiqiy insonning mardligi Chivin obrazi timsolida obrazli tilda hikoya qilingan. Haqiqatan ham, K.Chuykovskiy masali M.Rahmon tomonidan o‘zbek tiliga mohirlik bilan o‘zbekchalashtirilgan. Pashshaoy bilan Chivinning to‘yidan bir lavhaning tarjimasiga diqqat qaratamiz:

Yetib keldi mashshoqlar,
Qilishmadi ovora.
Chalvorishdi nog‘ora.:
Baka-bum,
Tum-ta-ka-tum.
Bom-bom-bom,
Bom-bom-bom.
Pashshaoy Chivin bilan
Davrada aylar xirom.
Poshnasin urib yerga,
Tap-tup sakraydi Burga.
Raqs tushar suvaraklar,
Xonqizi, Kapalaklar.
Taralla, yallo-yallo.
Qo‘shiq yangrar baralla.
Har ishga qodir yigit
Suqsur, bahodir yigit.
Chivinsheru Pashshaoy
To‘ylaridir bu palla⁹.

⁹ Chukovskiy K. Pashsha - Oypashsha / Rahmon M. Yo‘l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 215..

Ma'lumki, bolalar olam va odamni tanishda, o'rganishda taqlid qilib o'rganadi. Masalda uchraydigan taqlidiy so'zlar “baka-bum”, “tum-ta-ka-tum”, “bom-bom-bom”, “tap-tup” kabilar bola ongiga tez yetib boradi. Bundan tashqari, bu taqlidiy so'zlar masalda obrazlilik va bolalarning oson yod olishi uchun ham bolalarbop mazmun mohiyat kasb etgan. Muhammad Rahmon Chukovskiyning “Pashsha - Oypashsha” masalini aslyatda qanday bo'lsa, o'zbekchada shunday jaranglata olgan. Qolaversa, masalda hikoya etilgan voqea va qissadan chiqarilgan hissa bolaning tafakkurini ezgulik falsafasi bilan yoritadi, bolani tarbiyalaydi.

M.Rahmonning kattalarga bag'ishlab yozilgan she'rlarida ham shoirona ohorli poetik obrazlar ko'plab uchraydi. Badiiy folklorizmlar nihoyatda o'rni-o'rnida ishlatiladi. “Farosat haqida ertak” she'rida shoir xalq og'zaki ijodining ertak janri unsurlaridan unumli foydalangan. Bilamizki, xalq ertaklarida uch aka-uka va uch opa-singillar haqida juda ko'plab syujetlar to'qilgan. “Uch og'a-inilar” va “Uch opa-singillar” motivi juda mashhur. M.Rahmon ana motivdan foydalangan holda adabiy ertakda chol qo'shnining uchta qiziga uch kunda davomida daryodan suv keltirib berishini so'rab, ularning farosatini sinab ko'radi. Ikki katta qiz indamay daryodan cholga suv keltirib, otadan duo olishadi. Uchinchi qiz esa “daryodan mollar ham, morlar ham suv ichadi” – deb javob beradi. Chol uning bu javobidan qanoatlanib, shu qizga sovchilikka keladi. Adabiy ertakda ertak stilizatsiyasi mahorat bilan amalga oshirilgan.

Xullas, Muhammad Rahmonning har bir she'ri, adabiy ertak va doston, balladalari o'z o'quvchisini topib, ularning qalbida iz qoldiradi. Badiiy tarjimalari ham nihoyatda nozik did bilan amalga oshirilgan. Afsuski, shoir bu olamdan erta ketdi. Vahonlanki, unga yana umr berilganida, Muhammad Rahmon o'zbek she'riyati, o'zbek tarjimachiligi, bolalar adabiyotiga yana ko'p asarlar yozib, o'z ulushini qo'shgan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmon M. Saylanma. Yo'l ko'rayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 6.
2. Rahmon M. Qora ko'ylak / Yo'l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 92.
3. Rahmon M. Xalq ohanglarida / Yo'l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 80.
4. Rahmon M. “Mo'ndi” qizlar / Yo'l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 192.
5. Rahmon M. Topqir chittak / Yo'l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 196.
6. Chukovskiy K. Pashsha - Oypashsha / Rahmon M. Yo'l qarayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 215..